



## ADABIY TIL VA DIALEKTOLOGIYA

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy  
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11186861>

### ARTICLE INFO

Received: 9<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 11<sup>th</sup> May 2024

Published: 13<sup>th</sup> May 2024

#### KEYWORDS

sheva, dialekt, lahja, o'g'uz,  
adabiy til

### ABSTRACT

*Ushbu maqola O'zbek adabiy tili va shevalarning muhim jihatlarini va O'zbek adabiy tili bizga qanchalik muhim bo'lsa shevalarning o'rni ham shunchalik ekanini bilishimiz uchun yordam beradi.*

### ARTICLE INFO

Received: 9<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 11<sup>th</sup> May 2024

Published: 13<sup>th</sup> May 2024

#### KEYWORDS

dialect, dialect, dialect, Oghuz,  
literary language

### ABSTRACT

*This article will help us to know the important aspects of the Uzbek literary language and dialects, and how important the Uzbek literary language is to us, and the importance of dialects.*

O'zbek dialektologiyasida biz O'zbek tili shevalarining leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarini va ularning kelib chiqish tarixini o'rganadi. Har bir adabiy tilning asosini, albatta, shevalar tashkil qiladi. Shevalarning bizning hayotimizda o'rni beqiyos hattoki yangiu tug'ilgan chaqaloq ham eng birinchi so'zni shevalar orqali gapirib boshlaydi. Ona tili deganda ko'z o'ngimizga birinchi bo'lib o'zimizning shevalarimiz keladi. Shu sababli biz har doim o'z tilimizni, shevalarimizni va urf-odatlarimizni asrab avaylashimiz kerak bo'ladi. Boirinchi prezidentimiz I. A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir"<sup>1</sup>- degan fikrlarni bildirib o'tganlar.

Umumxalq tili va adabiy til. Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tili bo'lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi. Bir tilga mansub barcha sheva va lahja umumxalq tilini tashkil qiladi.

<sup>1</sup> Karimov I A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch Toshkent-2010

O'zbek umumxalq tili uch lahjadan tashkil topgan. Umumxalq tili milliy til ham deyiladi. Adabiy til esa umumxalq tilining olim va adiblar tomonidan qayta ishlangan, me'yorga solingan, hamma uchun umumiy bo'lgan, yuqori darajada sayqallashgan shakli. Davlat muassasasi, matbuot, radio, televideniye va ta'lim, madaniyat va ilmda adabiy tildan foydalaniladi. Adabiy til umumxalq tilidan tashqarida bo'lmaydi. Adabiy tili bo'lishi uchun umumxalq tili: - yozuv bilan ta'minlangan bo'lishi; - qonun-qoidasi aniqlangan bo'lishi; - mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan bo'lishi lozim. Dunyodagi ko'pgina tilning hozir ham adabiy shakli yo'q. Lahja va sheva. Adabiy til lahja va sheva negizida umumlashtirish, qat'iy me'yorni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi va undan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevasidan uzilmagan. Adabiy til uchun sheva boyishning ichki manbasi hisoblanadi. Boshqa tildan so'z olib rivojlanish tashqi manbadir. Faqat muayyan hududga xos til shakli sheva, bir-biriga yaqin bo'lgan sheva yig'indisi lahja deb yuritiladi. Dialekt so'zi gohida sheva, gohida lahja atamasi o'rnida keladi: Toshkent dialekti (shevasi), qipchoq dialekti (lahjasi) kabi. Adabiy til shevadan, shuningdek, bir lahja ikkinchi lahjadan, bir sheva boshqa shevadan fonetik, leksik va grammatik jihatdan ozmi-ko'pmi farq qiladi.<sup>2</sup>

O'zbek dialektologiyasini chuqur o'rganishimiz kerak shu shevalar orqali bizning urf-odat an'analarimiz ham namoyon bo'ladi. O'zbek shevalari ustida ish olib boradigan olimlar hozirgacha ham shevalarni o'rganishda juda ham qiynalishadi. Turkiy tillarning ichida shevalari ko'p til bu O'zbek tili. O'zbek tilida shevalar ko'p bo'lgani bilan bir qatorda bu shevalarning murakkabligi va shu bir tilning ichida shevalarning ko'pligi uchun olimlarga o'rganish biroz qiyinchiliklar tug'diradi. O'zbek shevalarini tavsifiy-qiyosiy metoddan foydalanib o'rgansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz asosan argo va jargolardan shevaga oid so'zlarning ikkisini farqlab olishimiz kerak bo'ladi. Shevaga oid so'zlarni shu sheva vakillarining hammasi tushunad. Argo bilan jargoda bunday xususiyat bo'lmaydi uni faqat bir guruh yoki bir toifa vakillarigina tushunishadi. Adabiy til esa har bir millar-elat tillarining yuqori bosqichi ya'ni ma'lum bir me'yorlarga bo'ysunadigan til. Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so'z ustalari tomonidan sayqal berilgan milliy tilning yuqori bosqichidir<sup>3</sup>. O'zbek adabiy tili ham ikki bosqichda bo'ladi og'zaki va yozma. Orfoepik qoidalarga og'zaki shakli, orfografik qoidalarga esa yozma shakli bo'ysunadi. Og'zaki shakli rasmiy majlislarda qo'llaniladi. Yozma shakli O'zbek tilining alifbosidan foydalangan holda orfografik qoidalarga bo'ysunib yoziladi. Adiblar badiiy adabiyotda ham dialektizmga oid so'zlardan foydalanishadi. Ikki vazifa uchun kerak bo'ladi birisi shu asardagi qahramonning qayerdan ekanligini ko'rsatish uchun ikkinchisi sinonimik qator adabiy tilda shu ma'noni to'liq bera oladigan so'z bo'lmasa shevadan olishadi. Dialektlar adabiy tilning boyishi uchun asosiy manbalardan birisi. Shevalar to'g'ridan to'g'ri adabiy tilga o'tib ketmaydi. Adiblarning mahorati sababli o'tadi masalan bir yozuvchi shevaga oid so'zni asarida qo'lladi va shundan keyin boshqa yozuvchilarga ham bu holar yoqib ular ham qo'lladi keyin asta-sekinlik bilan u so'z adabiy tilga o'tadi.

---

<sup>2</sup> Mengliyev B Xoliyorov O' O'zbek tilidan universal qo'llanma Toshkent-2008

<sup>3</sup> Ashirboyev S O'zbek dialektologiyasi Toshkent-2013

Adabiy tilda o'rik o'g'uz shevasida esa arik deb ataladi shuning pishib yetilmaganiga adabiy tilda dovuchcha shevada esa do'cha deb yuritiladi.

Bog'imizda *o'rik* daraxti ko'p, mevalari hali pishib yetilmagan ukam shu *dovuchchani* juda ham yaxshi ko'radi.

Bog'imizda *arik* daraxti ko'p, mevalari hali pishib yetilmagan ukam shu *do'chani* dm yaxshi go'radi.

Dovuchcha so'zi o'shevasidan boshqa shevalarda boshqacha talaffuz qilinadi masalan g'o'ra degan varianti ham mavjud. O'zbek shevalarini 20-30- yillardan boshlab ilmiy jihatdan o'rganish ishlari boshlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch Toshkent-2010
2. Abdullayev F A O'zbek tilining Xorazm shevalari-1996
3. Ashirboyev S O'zbek dialektologiyasi Toshkent-2013
4. Mengliyev B Xoliyorov O' O'zbek tilidan universal qo'llanma Toshkent-2008

INNOVATIVE  
ACADEMY